

Xongeldiyeva Sevara Shuxrat qizi

O'zbek filologiyasi fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'limi yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Umurqulov Bekpo'lat

**Annotatsiya:** Yoshlar o'ratasidagi nutq faoliyati va bugungi kunda, axborotlashtirish va globallashuv davrida, ota-onalar va keksa avlod vakillari oldida yoshlarning ona tiliga bo'lgan munosabatini o'zgartirish haqidagi fikrlar ushbu maqolada o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** O'spirinlar nutq madaniyati, til me'yorlari, talaffuz normalari, kommunikativ nutq madaniyati.

Ma'lumki, o'spirin yoshlar tabiatan boshqa odamlar bilan nutqiy aloqalardan voz kechishi mumkin emas: u maslahatlashishi, fikrlari, his-tuyg'ulari bilan o'rtoqlashishi kerak, nutq esa muloqotning boshlanishidir. Bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondirishning asosiy usuli bu nutqdir. Buning uchun bolani bilim olishga bo'lgan intilishini, shuningdek, ongli ravishda bunga harakatlarini qo'llash va ona tilida gaplashish istagini rag'batlantirish zarur. Bunday sharoitda o'spirinlarning nutq madaniyatini umuta'lim maktabida va undan keying ta'limda shakllantirish vazifasi ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. O'zbek madaniyatida oila bolaning shaxs bo'lib voyaga yetishida muhim rol o'ynaydi. Oilaviy an'analar va urf-odatlar kelajak avlodning Vatanga muhabbat, o'z madaniyati va millatiga hurmat kabi fazilatlarni belgilab beradi. Bugungi kunda, axborotlashtirish va globallashuv davrida, ota-onalar va keksa avlod vakillari oldida yoshlarning ona tili – o'zbek tiliga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirish vazifasi yanada keskinroq turibdi. Badiiy adabiyotni o'qishga bo'lgan muhabbatni oshirish, ba'zi tarixiy so'zlar va iboralarning ma'nosini tushuntirib berish, mamlakat, shahar, mahalla tarixini o'rgatib boorish ham zarur[3].

Til me'yorlari filologlar tomonidan ixtro qilinmagan, ular butun xalq abbiy tili rivojlanishining ma'lum bir bosqichini aks ettiradi. Til me'yorlari farmon bilan kiritilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas; ularni ma'muriy usul bilan isloq qilish mumkin emas. Talaffuz normalariga va so'zlarni ishlatish qoidalari beparvolik, jargon va vulgarizmlardan foydalanish, asossiz chet el so'zlarini ishlatish nutqni ifoslantiradi, adabiy tilni yo'q qiladi va bu oxir-oqibat, tilshunoslar aytganidek, millatning o'limiga olib keladi.

Mamlakatimizda nutq madaniyatining pasayish muammolari, jargon va xalq tilining tarqalishi tendensiyasi dolzarbdir, bunga alohida e'tibor berilmoqda, chunki nutq madaniyati ijtimoiy ahamiyatga ega. Kommunikativ nutq madaniyatini shhakllantirish muammosi turli yosh guruqlarida turlicha ifodalanadi va asosan o'spirin maktab

o'quvchilariga taalluqlidir. Binobarin, barcha ta'lif muassasalari va ularda ishlayotgan o'qituvchilarning muhim vazifikasi adabiy tilga asoslangan og'zki muloqot madaniyatini shakllatirish va yuksaltirish uchun qulay sharoit yaratishdir. Bugun o'zbek tilini takomillashtirish bo'yicha ulkan o'zgarishlar yuz bermoqda av asosiy muammolardan niri bu nutqimizda chet el so'zlaridan toboro ko'p foydalanish bo'lib qolmoqda. Jargon so'zlar madaniy nutqni siqib chiqarmoqda va ommaviy madaniyat tufayli butun xalq tilida iz qoldirmoqda. Ma'lum bir yoshdan boshlab ko'pchilik "ko'cha" tilidan faol foydalanadi, ammo vaqt o'tishi bilan ular adabiy tildan tez-tez foydalanishni boshlaydilar. Yoshlar jargonida so'z bilan "o'ynash", hayotga alohida munosabatda bo'lishga, hamma to'g'ri, barqaror, zerikarli, odatiy narsalarni rad etishga asoslangan. Afsuski, ko'p holatlarda keksa avlod vakillari ham jargonga qaramlikni saqlab qolmoqda.

Nutqning zamonaviy shakli yoshlarning nutq madaniyati darajasiga alohida e'tibor berishni talab qiladi. Biroq so'nggi yillarda yoshlarning nutqi va umumiyligi madaniyati sezilarli darajada o'zgardi, axloqiy me'yorlar e'tiborsiz qoldirila boshlandi, bu esa jamiyatning tanazzulga uchrashiga olib kelishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, yoshlar orasida ona tilini bilish darajasi, adabiyotga qiziqish pasaymoqda. Zamonaviy yoshlar va katta avlodning aksariyat qismi kitob o'qishni internetning ijtimoiy tarmoqlarida "onlayn" bilan almashtirib, kitob mutolaasiga juda oz vaqt ajratishmoqda.

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir (A.A.Leont'ev). Ilmiy tadqiqotlar va yo'nalishlar tahlili maktabgacha yoshdagagi bolalar nutqining turli tomonlarini rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o'rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish O'zbekiston Respublikasida o'tgan asrning 50-yillarida boshlangan. Maktabgacha ta'lif sohasidagi birinchi fan nomzodi A.V.Nikolskaya mahalliy millat bolalariga rus tilini o'qitish zarurligi masalasini ko'tarib chiqdi. U tomonidan o'tkazilgan sinov tadqiqotlari (1958–1960-yillar) natijasida maktabgacha katta yoshli o'zbek bolalariga ruscha og'zaki nutqni o'rgatish metodikasining asosiy mazmuni belgilangan va uning asosiy masalalari ishlab chiqilgan[1,11]. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtiroy etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochadi. Umuman, shaxsnинг va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o'rinni tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo'yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro'y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish kalitidir.

Kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida o'z aksini topadi. Yosh o'sib kelayotgan avlod ham o'z nutqi, xatti-harakati bilan jamiyatda munosib o'rin egallaydi. Shunday ekan, nutq odobi nima? Nutq odobi deganda, aytilishi zarur bo'lган xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos holda adabiy normadagi ifodalar bilan yetkazish tushuniladi. Har qanday xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so'zlovchi tilni, adabiy til normalarini mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli, odobli so'zlash ham o'zidan o'zi paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug'at boyligini egallah, bu borada nutqi ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish orqali erishiladi. Bugungi kunda yoshlар uchun eng yaxshi namuna adabiy til notiqlari va o'qituvchilar nutqidir. Buni notiq va o'qituvchi har doim o'zida his qilib turishi, o'z nutqida hech vaqt odob-axloq, nutq madaniyati normalaridan chiqmasligi lozim. Yoshlarda nutq odobi salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo'ladi va tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Salomlashishning ahamiyati haqida hindlarda shunday naql bor: " Bitta salom bilan beshta narsaga –o'zini yengil sezish, shon-shuhrat topish, qut-barakali, ilmli bo'lish va nihoyat uzoq umr ko'rishga erishiladi"[2,46].

Ha, salomda gap ko'p. Ammo salomlashish, salom berishning ham o'ziga yarasha qonun-qoidalari bor. Afsuski, keying chorakam bir asr mobaynida o'zimizning sharqona salomlashish odobimizni ham unutib yuborayozdik. Bugungi kunda avvalo har bir yosh salomlashish ham farz, ham qarz ekanligini yaxshi anglab yetmog'i lozim. Chunki " So'z boshi – salom", deganlaridek, suhbatdoshlar muloqoti "assalomu alaykum", "vaalaykum assalom" jumllalari bilan boshlanadi. Bu suhbatdoshlarning tanish yoki notanishligidan qat'i nazar, o'zaro hurmat va ehtirom belgisi hisoblanadi. Ammo keying paytlarda biror joyga kirib borayotgan, telefonda suhbat boshlayotgan kishilarning salomlashishni unutib borayotganligiga tez-tez guvoh bo'lib qolmoqdamiz. Xalq tilida salomlashish uchun ham, xayrlashish uchun ham alohida nutqiy vositalar mavjud[2,47].

Bugungi kun yoshlari Alisher Navoiy, Bobur, Nodirabegim, Abdulla Qodiriy, Zulfiya, G'afur Gulom va boshqa ko'plab buyuk shoir va yozuvchilaning tili –o'zbek adabiy tilidan ayirilish arafasida qoldi. Natijada, bugungi kunda mumtoz adabiy tilimiz qoidalalariga beparvolik odatiy holga aylanib bormoqda. Bu holat ommaviy axborot vositalari va kinoindustriya sohasida ham namoyon bo'lmoqda. Ming afsuski, maktab bitiruvchilarining ozgina qismi yuqori darajadagi kommunikativ nutq madaniyatiga ega.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ko'zlar qalbning ko'zgusi, nutq esa shaxsning ko'zgusi. Biz zamonaviy jamiyat, yoshlarni vatanparvarlik va millatimizga muhabbat ruhida tarbiyalashga befarq bo'lmasligimiz kerak. Ona tiliga muhabbatni kuchaytirish esa komil shaxsni tarbiyalashning yana bir muhim bosqichidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. D.R.Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi", T – 2018y, 11b.
2. "Nutq madaniyati" (o'quv metodik qo'llanma) , T - 2007y, 46-47b.
3. [http://yuz.uz/zamon\\_yoshlar\\_nutqi](http://yuz.uz/zamon_yoshlar_nutqi).